



Oybek ABDIMUROTOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti kafedra mudiri, dotsent
E-mail: o.abdimurotov@cspu.uz

TDPU dotsenti F.Saydamatov taqrizi asosida

CURRENT STATUS AND PROSPECTS OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF LEARNING PROCESSES IN GEOGRAPHY EDUCATION IN THE CONDITIONS OF THE CREDIT-MODULE SYSTEM

Annotation

This article analyzes the introduction of the credit-module system in geography education and its impact on increasing its effectiveness in the educational process. The credit-module system allows students to independently formulate educational programs, and teachers to use modern pedagogical methods. The article also considers the challenges of teaching geography teachers new educational technologies and pedagogical approaches, making the educational process more effective using international educational systems, and the obstacles encountered in the implementation of the system and ways to overcome them. The article concludes with proposals for improving the skills of geography teachers, improving the quality of education, and developing independent learning.

Key words: Geography education, credit-module system, independent learning, pedagogical technologies, teacher qualifications, international educational experiences, educational process, educational effectiveness, educational resources, educational materials.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА ПО ГЕОГРАФИЧЕСКОМУ ОБРАЗОВАНИЮ В УСЛОВИЯХ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ

Аннотация

В статье анализируется внедрение кредитно-модульной системы в географическое образование и ее влияние на повышение эффективности процесса обучения. Кредитно-модульная система позволяет студентам самостоятельно формировать образовательные программы, а преподавателям использовать современные педагогические методы. В статье также рассматриваются проблемы обучения учителей географии новым образовательным технологиям и педагогическим подходам, повышающим эффективность процесса обучения с использованием международных образовательных систем, а также препятствия, возникающие при внедрении этой системы, и пути их преодоления. В заключение статьи даны предложения по повышению квалификации учителей географии, улучшению качества образования и развитию самостоятельного обучения.

Ключевые слова: Географическое образование, кредитно-модульная система, самостоятельное обучение, педагогические технологии, квалификация учителей, международный образовательный опыт, образовательный процесс, эффективность обучения, образовательные ресурсы, учебные материалы.

KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA GEOGRAFIYA TA'LIMIDAGI O'QUV JARAYONLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING HOZIRIGI KUNDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola, geografiya ta'limalda kredit-modul tizimining joriy etilishi va uning o'quv jarayonidagi samaradorligini oshirishga bo'lgan ta'sirini tahlil etadi. Kredit-modul tizimi talabalariga ta'lim dasturlarini mustaqil ravishda shakllantirish, o'qituvchilarga esa zamonaliviy pedagogik metodlarni qo'llash imkonini yaratadi. Maqolada, shuningdek, geografiya o'qituvchilari uchun yangi ta'lim texnologiyalari va pedagogik yondashuvlarni o'rgatish, xalqaro ta'lim tizimlaridan foydalangan holda o'quv jarayonini yanada samarali qilish, va tizimni joriy etishda duch kelinayotgan to'siglar va ularni bartaraf etish usullari ko'rib chiqilgan. Maqola, geografiya o'qituvchilarining malakasini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash va mustaqil ta'limni rivojlantirish bo'yicha takliflar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: Geografiya ta'limi, kredit-modul tizimi, mustaqil ta'lim, pedagogik texnologiyalar, o'qituvchi malakasi, xalqaro ta'lim tajribalari, o'quv jarayoni, ta'lim samaradorligi, ta'lim resurslari, o'quv materiallari.

Kirish. So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini xalqaro talablar asosida modernizatsiya qilish, bo'lajak pedagoglarni yuqori malakali mutaxassislar sifatida tayyorlash va ularning kasbiy mahoratini rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. "Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun" shiori ostida jadal rivojlanayotgan Respublikamizda ta'lim jarayoniga innovatsion va raqamli texnologiyalarni tatbiq etish orqali uning sifatini va samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"ga ko'ra, mamlakatdagi OTMlarning 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. Ushbu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 30-iyundagi qarori bilan 2020-2021-o'quv yildan boshlab mamlakatimizdagagi 35 ta OTM kredit-modul tizimiga o'tgan. Kredit-modul tizimi tamoyilida ikkita bosh masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash hamda talabalar bilimini reyting asosida baholash. Kredit-modul tizimi o'quv jarayonini yanada moslashuvchan,

samarali va shaffof qilishga imkon berib, talabalar uchun mustaqil ta'limni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'limning kredit-modul tizimi sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishga umumiy yondashuvlar borasida xorijiy davlatlar olimlaridan: N.A.Asanov, Y.L.Artamonova, O.V.Boyev, G.N.Gamamik, G.G.Pivnya, A.A.Kusainov, S.R.Ibatulin, O.A.Sevostyanova, A.L.Chuchalina va boshqalar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, mamlakatimiz olimlaridan: V.O'rino, M.Sultonov, A.Umarov, B.Sh.Usmonov, R.A.Habibullayev, G.A.Nazarqulovalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

O'quv jarayonlari davomida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish masalalari yuzasidan xorijiy davlatlarda T.V.Gabay, G.S.Abramov, G.I.Aleksandrov, V.G.Razumovskiy, A.V.Usova, V.K.Buryak kabi olimlari ilmiy tadqioqt ishlari olib borgan bo'lsa, yurtimiz olimlaridan K.A.Tursunmetov, S.R.Abdalova, O.A.Qo'ysinov, M.U.Qo'chqarov, Sh.E.Eshonqulova, M.L.Boltayeva, S.B.Ibragimova, B.R.Muqimov, M.Murodova, N.R.Saitkulovalar kabi metadist olimlar ta'lim jarayonida mustaqil ta'limning ilmiy asoslar,

pedagogik-psixologik ahamiyati va shakllari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan.

Shuni alohida qayd etish kerakki, yurtimizda geografiya o'qitish metodikasi sohasida M.Nabixonov, O.Mo'minov, T.Abdullayeva, P.Musayev, M.Yunusova, R.Qurbanboiyev, O'.Safarov, A.Xayitov, M.Abduraxmanov, Q.Bahromov, R.Gaypova, S.Matsaidova, F.Jumanova, X.Nikadamboyeva, F.Xamroyeva, A.Jonzakov, F.Saydamatov, M.Qo'ldashova, X.Amanov, F.Rajabov, H.Shodiyev, D.Abdullayeva kabi olimlar tomonidan geografiyanı o'qitish bo'yicha dissertatsiya tadqiqotlari olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Kredit-modul tizimi sharoitida geografiya fanini o'qitish jarayonini samarali tashkil etish, talabalarning ichki imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish, kreativ va mantiqiy fikrplashga o'rgatish, zamonaviy ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Geografiya fani o'qituvchisining metodik mahorati, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ta'lim metodikasi boy ilmiy meros, tajriba va pedagogik ta'minotdan foydalanish orqali o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishda muvaffaqiyatini ta'minlashi mumkin. Shunday qilib, geografiya fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish, o'quvchilarning ilmiy va amaly bilimlarini samarali ravishda rivojlantirishning muhim omillaridan biridir.

Tahlil va natijalar. Kredit-modul tizimi sharoitida geografiya ta'limidagi o'quv jarayonlarini samarali tashkil etishning hozirgi kundagi holati va istiqbollari quyidagi asosiy vazifalar va tahlillarni o'z ichiga oladi:

1. Rivojlangan davlatlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or ta'lim tajribalari asosida, geografiya o'qituvchilariga mo'ljallangan ta'lim dasturlarini modernizatsiya qilish va mustahkamlash zarur. Bu orqali o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishlari uchun zarur bo'lgan resurslar va o'quv materiallari ishlab chiqilishi, o'qituvchilarni xalqaro ta'lim metodologiyalari bilan tanishtirish muhim hisoblanadi.

2. Ta'lim jarayonida talabalarning, professor-o'qituvchilarining va izlanuvchilarining almashinuv dasturlarini kengaytirish geografiya o'qituvchilari uchun ham katta imkoniyatlarni yaratadi. Xorijiy tajribalar, yangi pedagogik yondashuvlar va ilmiy tadqiqotlar, o'quv jarayoniga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu hamkorlik orqali, o'qituvchilar o'z bilimlarini va pedagogik salohiyatini oshirishi, talabalar esa dunyo niqyosida ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishi.

3. Ta'lim texnologiyalarini samarali joriy etish: Geografiya o'qituvchilari uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalarini o'rganish va pedagogik kadrlar salohiyatini oshirishga ko'maklashuvchi raqobat muhitini yaratish muhim vazifa bo'ladi. Bu o'qituvchilarni faqtatgina texnologiyalarga qiziqritib qolmay, balki ularni o'quv jarayonida yangi yondashuvlar va metodlarni joriy qilishga undaydi.

4. Kredit-modul tizimi sharoitida, talabaga ta'lim dasturini mustaqil shakllantirish imkoniyati yaratish, uning o'ziga xos va individual yondashuvini ta'minlashga yordam beradi. Bu, geografiya o'qituvchilarini uchun o'quv jarayonini o'z vaqtida va samarali yakunlash imkoniyatini beradi. Bunda o'quvchilarning ish yukini boshqarish, o'quv materiallарining moslashuvini va malakali o'qituvchilar bilan ishlash juda muhimdir.

5. O'tgan davrda kredit-modul tizimini joriy etishda qator ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, tizimning to'liq amalga oshirilishi uchun hali bir qancha to'siqlar mavjud. Ob'ektiv va sub'ektiv sabablar kredit tizimining to'liq tatbiq etilishiga to'sqinlik qilmoqda. Masalan, o'qituvchilarining metodologik tayyorgarligi, o'quv materiallарining yetishmovchiligi yoki tizimning dastlabki bosqichlarida yuzaga kelgan muammolar ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Kredit-modul tizimini to'liq amalga oshirish, geografiya o'qituvchilariga mustaqil ta'limni tashkil etishning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bu tizimning to'liq joriy etilishi orqali, talabalar o'z bilimlarini yanada chuqurlashtirishi, o'qituvchilar esa yangi pedagogik metodlarni o'zlashtirishi mumkin. Biroq, tizimni takomillashtirish va undan to'liq foydalanish uchun mavjud to'siqlarni bartaraft etish, sifatli o'quv materiallарini ishlab chiqish va o'qituvchilarini doimiy ravishda malakasini oshirish zarur. Shu tarzda, kredit-modul tizimi sharoitida geografiya o'qituvchilarining mustaqil ta'limni

tashkil etish jarayoni yanada samarali bo'lishi va xalqaro ta'lim standartlariga moslashtirilgan ta'lim tizimi yaratish mumkin bo'ladi.

Yuqorida tahlil va xulosalardan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarida quyidagi ishlarga alohida e'tibor berilishi lozim.

1. Kredit-modul tizimi asosida oliy ta'lim jarayonini tashkil etish uchun mavjud me'yoriy hujjalarda zarur o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish kerak. Bu, tizimni amalda samarali qo'llashga yo'l ochadi, shuningdek, kredit tizimi tashkil etishga qarshi bo'lgan tushunchalarini bartaraft etish va mavjud cheklowlarni bartaraft etish imkonini beradi. Oliy ta'limning yangi tizimiga mos ravishda, geografiya o'qituvchilariga ta'lim berish jarayonini takomillashtirish mumkin bo'ladi.

2. Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarini uchun majburiy va tanlov fanlari, har biri fan bo'yicha kreditlar, fan sillabuslari va boshqa o'quv-uslubiy materiallari o'z ichiga olgan o'quv metodik komplekslarini tayyorlash zarur. Bu materiallar, talabalarga o'z mustaqil ishlarini samarali tashkil etish, shuningdek, geografiya o'qituvchilarini uchun o'qitish jarayonini qulay va samarali qilish imkonini beradi.

3. Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini tayyorlashda, professor-o'qituvchilar talabalarning o'qish shaklini (kunduzgi, sirtqi, masofaviy va kechki) hisobga olgan holda ishlab chiqilgan universitetdagi kredit tizimi tuzilmasi va faoliyati bo'yicha to'liq yo'riqnomasi bilan ta'minlanishi kerak. Bu hujjat, o'qituvchilar va talabalar uchun tizimni to'g'ri tushunish va unga mos ravishda faoliyat olib borish imkonini beradi.

4. Talabalarning fanlar bo'yicha o'zlarini tanlash huquqini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu talabalar uchun o'z ixtisosliklari va qiziqishlariga mos keladigan fanlarni tanlash imkonini beradi. O'qituvchilar va talabalar, o'zlariga mos fanlarni tanlash orqali o'quv jarayonini yanada samarali o'tishlariga erishishlari mumkin.

5. Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini uchun mustaqil ta'limni tashkil etish metodikasini ishlab chiqish va uni uslubiy ta'minlash muhim. O'qish shaklini (kunduzgi, sirtqi, masofaviy) hisobga olgan holda, talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan resurslar va yo'riqnomasi ishlab chiqilishi lozim. Bu orqali talabalarga o'z bilimlarini mustaqil ravishda rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

6. Talabalar uchun ruxsat etilgan dars soatlaridan ortiq sababsiz qatnashmaslikka yo'l qo'ymaslik va ularning tegishli fanlarni qayta o'rganishlarini ta'minlash zarur. Bu bo'lajak geografiya o'qituvchilarining sifatlari ta'lim olishlari va bilim darajalarini doimiy ravishda oshirishlariga yordam beradi. Shuningdek, talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro mas'uliyatni kuchaytiradi.

7. Kafedralar tarkibini va professor-o'qituvchilar yuklamalarini o'z vaqtida shakllantirish maqsadida, talabalarning fanlarni tanlash jarayonini o'quv semestridan ikki oy oldin o'tkazish zarur. Bu o'qituvchilarining yuklamalarini to'g'ri taqsimlashga yordam beradi va o'quv jarayonini yaxshilaydi. Shuningdek, geografiya o'qituvchilarining o'z sohalarida professional malakasini oshirishga imkon yaratadi.

8. Talabalarning mustaqil ishlari samaradorligini oshirish maqsadida, professor-o'qituvchilar yuklamalarining o'quv mashg'ulotlari soatini kamaytirish lozim. Bu orqali, bo'lajak geografiya o'qituvchilar mustaqil ishlarni olib borish va ilmiy va metodik ishlarga ko'proq e'tibor qaratishlari mumkin. Talabalarni ilmiy tadqiqotlar va pedagogik metodlarni rivojlantirishga rag'batlantirish, o'quv jarayonining sifatini oshiradi.

Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilariga mustaqil ta'limni tashkil etishning samaradorligini oshirish uchun yuqorida tafkilflarni amalga oshirish zarur. Bu ishlarning qisman amalga oshirilishi, ta'lim jarayonining sifatini sezilarli darajada oshiradi va geografiya o'qituvchilarini tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Geografiya ta'limida mustaqil ta'limni tashkil etishda kredit-modul tizimining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Kredit-modul tizimi ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirsa, geografiya ta'limida ham uning o'quv jarayonini takomillashtirishga ham salmoqli hissa qo'shadi. Ushbu tizim ta'lim sifatini oshirish, talabalar va o'qituvchilar o'rtasida yanada

samarali muloqot o'rnatish va geografiya o'qituvchilarining malakasini rivojlantirishda muhim o'rinni tutadi.

Kredit – modul tizimiga o'tish geografiya sohasidagi talabalarga quyidagi imtiyozlarni beradi:

1. Kredit-modul tizimining asosiy afzalliklaridan biri, talabalar o'zlarini to'plagan kreditlarni boshqa oliv ta'lim muassasalariga ko'chirib, o'qishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lishidir. Bu, geografiya ta'limida ham talabalar uchun katta imkoniyat yaratadi. Talabalar, o'zlarini istagan va ularning qiziqishlariga mos keladigan kurslarni tanlash orqali o'z ta'lim yo'llarini yanada moslashuvchan va samarali qilishlari mumkin.

2. Geografiya o'qituvchilarining malakasini oshirish uchun, o'quv jarayonida o'qituvchini tanlash huquqini taqdim etish zarur. Talabalar o'qituvchini tanlash orqali o'qituvchi va talaba o'rtasida yanada samarali akademik muloqot o'rnatalishi mumkin. Bu, geografiya ta'limida ilmiy-izlanuvchi muhitni rivojlantirishga, talabalarga mustaqil fikrash va muammolarni hal qilish ko'nigmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

3. Geografiya ta'limida kredit-modul tizimi, talabalar uchun mustaqil ta'limni tashkil etishda katta ahamiyatga ega. Talabalar, majburiy fanlardan tashqari, o'zlariga qiziqarli yoki kelajakdagi kasbiy faoliyatiga mos keladigan fanlarni tanlash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu o'quv jarayonida talabarni faollashtiradi, chunki ular o'z bilimlarini yanada kengaytirish va mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

4. Kredit-modul tizimi, talabalar uchun ta'lim dasturini mustaqil ravishda shakllantirish imkonini yaratadi. Talabalar, o'zlarining shaxsiy qiziqishlari va kasbiy yo'nalishlariga mos ravishda kurslarni tanlab olishlari mumkin. Bundan tashqari, baholash tizimining oshkoraligi ta'lim jarayonini yanada shaffof qiladi. Har bir talabaga berilgan baho aniq va izchil asosda taqdim etiladi, bu esa ta'lim tizimida korrupsiyani kamaytirishga yordam beradi.

5. Kredit-modul tizimida talabalar har bir fan uchun belgilangan kreditlarni to'plashga majbur. Agar talaba belgilangan kreditni to'play olmasa, u fanni qayta o'qishi va qayta imtihon topshirishi kerak bo'лади. Bu, geografiya o'qituvchilariga uchun o'quv jarayonini yaxshilashga yordam beradi, chunki talabalar har bir fanni to'liq o'rganish uchun kerakli vaqt va resurslarga ega

bo'ladilar. Qayta o'qish pullik bo'lishi va o'qish natijalari faqat belgilangan kreditlar yig'ilganidan so'ng taqdim etilishi, ta'lim tizimining sifatini yaxshilashga olib keladi.

6. Geografiya ta'limi jarayonida kredit-modul tizimi talabalarning o'quv faoliyatini samarali baholash imkoniyatini yaratadi. Semestr yakunida talabalarning bahosi, fan o'qituvchisi tomonidan o'tkazilgan oraliq nazorat, uyg'a vazifalar va amaliy mashg'ulotlar asosida shakllanadi, yakuniy baho esa OTM rahbariyati tomonidan olinadi. Bu ikki darajali baholash tizimi, talabalar tomonidan o'rgamilgan materiallarni yaxshiroq baholash va talabaning umumiy bilim darajasini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Geografiya ta'limida kredit-modul tizimining joriy etilishi, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarga yanada moslashuvchan va o'ziga mos ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, shuningdek, mustaqil ta'limni yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. Bu tizim geografiya o'qituvchilarining malakasini oshirishga, ilmiy va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirishga, hamda o'quvchilarni mustaqil fikrashga o'rgatishga imkon yaratadi. Kredit tizimi talabalarga o'z ta'limlarini yanada samarali shakllantirish va jahon miqyosida raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlanish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Kredit-modul tizimi asosida geografiya ta'limi jarayonini samarali tashkil etish uchun bir qator muhim takliflar va chora-tadbirlar mavjud. Birinchi navbatda, oliv ta'lim tizimida me'yoriy hujjatlarga zarur o'zgartirishlar kiritilishi, geografiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv materiallari va metodik komplekslar ishlab chiqilishi zarur. Bo'lajak geografiya o'qituvchilarining tayyorlanishi jarayonida, professor-o'qituvchilarni to'g'ri yo'riqnomasi bilan ta'minlash va talabalarga o'zlarini tanlagan fanlarni o'rganish imkoniyatini yaratish muhimdir. Bundan tashqari, talabalarning mustaqil ishlarni samarali tashkil etish uchun zarur resurslar va uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilishi lozim. Nihoyat, professor-o'qituvchilar yuklamalarining samarali boshqarilishi va talabalarning mustaqil ishlarni samaradorligini oshirishga yordam beruvchi uslubiy yondashuvlar ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilashga olib keladi. Bu chora-tadbirlar kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilariga uchun o'quv jarayonlarini yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Abdumurotov O.U. Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining mustaqil ta'limini tashkil etish shakllari // "Pedagogika" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023. 4-son. 289-293 b.
2. Abdumurotov O.U. Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilariga mustaqil ta'limni samarali tashkil etish vositalari // ILIM hám JÁMIYET (FAN va JAMIYAT) ilmiy-uslubiy jurnal 2024. № 5/2. 56-59 b.
3. Abdumurotov O.U. Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilariga mustaqil ta'limni tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida // "Ta'lim, fan va innovatsiya" jurnalni 2023. 6-son. 106-110 b.
4. Murodova M. Kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent: "Fan ziyosi" nashriyoti, 2023
5. Nazarqulova G.A. Kredit-modul tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini takomillashtirish. Dissertatsiya. – T.: 2023. –152 b.
6. Rajabov F.T., Abdumurotov O.U. Geografiya ta'limida mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha xalqaro tajribalar // "Geografiya - nazariyadan amaliyotga" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Qo'qon. 2024-yil 25-noyabr. 393-398-b.